

“Management” yo‘nalishi kirish imtihonlari (1- bosqich) natijalari e‘lon qilindi!

Hurmatli abituriyentlar,

2022-2023 o‘quv yili uchun

**“MANAGEMENT” YO‘NALISHI KIRISH IMTIHONLARIDAN MUVAFFAQIYATLI
O‘TGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!**

Ushbu rasmiy e‘longa alohida e‘tibor berishingizni so‘raymiz!

2022-yil 14-mayda bo‘lib o‘tgan “Management” yo‘nalishi kirish imtihoni natijalariga ko‘ra, abituriyentlar uchta toifaga bo‘lingan:

BIRINCHI TOIFA:

26 va undan yuqori ball to‘plaganlar birinchi kurs (Preparatory Year)ga GRANT asosida qabul qilinadi. IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o‘quv yili so‘ngiga qadar. Ushbu toifada o‘qish to‘lovi mavjud emas.

IKKINCHI TOIFA:

10 va undan yuqori, ammo 26 dan past ball to‘plaganlar birinchi kurs (Preparatory Year)ga qabul qilinadi. Bir o‘quv yili uchun o‘qish to‘lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so‘mni tashkil qiladi. Ushbu toifaga IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o‘quv yili so‘ngiga qadar.

UCHINCHI TOIFA:

10 balldan kam ball to‘plaganlar belgilangan qabul

chegarasidan o'ta olmaganlari sabab kutish ro'yxatida turibdilar va o'qishga qabul qilish to'g'risidagi qaror iyul oyida bo'lib o'tuvchi kirish imtihonining ikkinchi bosqichidan so'ng qabul qilinadi.

Abituriyentlar uchun ajoyib imkoniyat!

10-iyungacha TO'LOV UCHUN SHARTNOMANI TO'LIQ to'lagan abituriyentlar shartnoma summasidan **10% chegirmaga** ega bo'ladilar.

Shartnomalarni rasmiylashtirish Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti binosida **2022-yil 20-may soat 09:00 dan** boshlab amalga oshiriladi.

Iyul oyidagi kirish imtihonlari (2-bosqich) qoidalari tez

orada e'lon qilinadi.

Qabul komissiyasining ishi uchun mas'ul shaxslar:

Rektor – Inoyatxodjayev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullayev Farhod Bahramovich

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

Ariza beruvchi pasportining asl nusxasi;

Ariza beruvchining ota-onasining pasport nusxasi.

Barcha savollar bo'yicha raqamlar:

71 246-80-51 / 52,

71 246 63 48

Elektron pochta: admission@polito.uz

Manzil: Kichik Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Olmazor tumani,
Toshkent 100095, O'zbekiston